



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

## TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*  
ISHQUVATOV Valiql Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*  
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*  
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*  
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*  
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*  
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*  
JABBAROV Ulug'bek Abduraxmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*  
HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*  
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*  
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*  
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*  
Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*  
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*  
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*  
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*  
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*  
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*  
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*  
Сайдивалиева Хуршида Ходжаакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*  
Атамуратов Расулжон Кадирджонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*  
Содикова Шохид Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*  
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*  
Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*  
Жаббаров Улughбек Абдурахманович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*  
Ходжиев Расулбек Бойназар оглы – *доктор философии (PhD) по философским наукам.*

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

### MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*  
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*  
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*  
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*  
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*  
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*  
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*  
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*  
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*  
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*  
Saydivaliyeva Xurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*  
Atamuratov Rasuljon Kadirjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*  
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*  
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*  
Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*  
Khodjiev Rasulbek Boynazar ogly – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

*SOTSILOGIYA*

<b>Usmonova R.M.</b> O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsiologik tahlili .....	4
--	---

*JAMIYAT VA OILA*

<b>Axunov M.M.</b> Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
<b>Yulchiyeva D.</b> Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati .....	26
<b>Davlatova H.U.</b> Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

*IJTIMOIIY PEDAGOGIKA*

<b>Matkarimov A.M.</b> Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari .....	46
<b>Ummatkulova N.</b> Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
<b>Qahhorova F.Y.</b> Ijtimoiy pedagogikada ishonirish metodlari .....	60
<b>Rustamova N.Y.</b> Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
<b>Egamberdiyeva G.B.</b> Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

*IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA*

<b>Arzikulov D.N.</b> Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
<b>Shamsiyev O‘.B.</b> Bolalar chapaqayligi xususida .....	94
<b>Абдуганиева Д.А.</b> Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности .....	100
<b>Xudoyorova M.X.</b> Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati .....	109
<b>Ashurova A.N.</b> O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari .....	119
<b>Nazarova M.Y.</b> Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravnlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127



**Qahhorova Feruza Yorqin qizi,**  
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali  
Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi  
e-mail: [feruzaqahhorova0103@gmail.com](mailto:feruzaqahhorova0103@gmail.com)

# IJTIMOY PEDAGOGIKADA ISHONTIRISH METODLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlarining mazmuni, ahamiyati va qo'llash xususiyatlari tahlil qilingan. Ishontirish metodlari ijtimoiy tarbiya jarayonida shaxsning qarashlarini shakllantirish, ijobiy ta'sir ko'rsatish va insonning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Maqolada ushbu metodlarning nazariy asosi va amaliyotdagi o'rni yoritilib, samarali qo'llash yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, pedagogning ishontirish jarayonidagi kompetensiyalari va uslublari xususida fikr yuritilgan. Ishontirish metodlari orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Annotatsiya.** В данной статье анализируется содержание, значение и особенности применения методов убеждения в социальной педагогике. Методы убеждения являются одним из основных инструментов в процессе социального воспитания в формировании взглядов человека, положительном влиянии и развитии социальной адаптации человека. В статье раскрыты теоретические основы этих методов и их роль на практике, а также показаны пути их эффективного применения. Также обсуждаются компетенции и методы педагога в процессе убеждения. Проанализированы возможности совершенствования системы воспитания и обучения личности методами убеждения.

**Annotation.** This article analyzes the content, significance and application features of persuasion methods in social pedagogy. Persuasion methods are one of the main tools in the process of social education for shaping a person's views, exerting a positive influence and developing a person's social adaptation. The article highlights the theoretical basis and role of these methods in practice, and shows ways of their effective application. It also discusses the competencies and methods of a teacher in the persuasion process. The possibilities of improving the system of education and upbringing focused on the individual through persuasion methods are analyzed.



**Tayanch soʻzlar:** *ijtimoiy pedagogika, ishontirish metodlari, tarbiya jarayoni, ijtimoiy moslashuv, pedagog kompetensiyalari, taʼsir koʻrsatish usullari, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim, tarbiya tizimi, pedagogik metodlar, oʻzaro muloqot texnikasi.*

**Ключевые слова:** *социальная педагогика, методы убеждения, образовательный процесс, социальная адаптация, педагогические компетенции, методы воздействия, личностно-ориентированное образование, система образования, педагогические методы, коммуникативные технологии.*

**Keywords:** *social pedagogy, persuasion methods, educational process, social adaptation, pedagogical competencies, methods of influence, person-centered education, educational system, pedagogical methods, communication techniques.*

**Kirish.** Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy muhitda shaxsni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishni oʻz oldiga maqsad qilgan ilmiy-amaliy yoʻnalish hisoblanadi. Bu yoʻnalish nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va unda faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Shaxsni rivojlantirishda turli pedagogik metodlardan foydalaniladi va ulardan biri – ishontirish metodidir. Ushbu metodning asosiy maqsadi – shaxsning ongiga, his-tuygʻulariga va irodasiga taʼsir oʻtkazish orqali maʼlum bir eʼtiqodni shakllantirish. Ishontirish metodining mohiyati va ahamiyati. Ishontirish ijtimoiy pedagogikaning asosiy metodlaridan biri boʻlib, u tarbiya jarayonida bolaga axloqiy, maʼnaviy va ijtimoiy qadriyatlarni singdirishda muhim rol oʻynaydi<sup>1</sup>.

**Maqsad va uni asoslash.** Bu metod shaxsning ichki motivatsiyasini shakllantirish, uning ijtimoiy xulq-atvorini yoʻnaltirish va toʻgʻri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishontirish metodining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi pedagogning bilim darajasi, kommunikativ koʻnikmalari va shaxsiy namunasiga bogʻliq. Ishontirish metodida taʼsiri shaxsning uchta asosiy jihati – ongi, his-tuygʻulari va irodasiga qaratish. Oqilona ishontirish shaxsni ijtimoiy meʼyorlarga rioya qilishga undaydi va unda axloqiy-ijtimoiy tamoyillar shakllantiriladi. Shaxsni ishontirish jarayonida eʼtiqod shakllanadi, bu bolaning maʼnaviy qadriyatlarga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ishontirishning asosiy vositalari ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodining samaradorligi uni qoʻllash jarayonida foydalaniladigan vositalarga bogʻliq. Quyida asosiy vositalar keltirilgan:

#### 1. Hikoya

Hikoya kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda qoʻllaniladi. Bu metod bolalarga hayotiy voqealar, axloqiy qoidalar va qadriyatlarni sodda

<sup>1</sup> Abdullaeva Z. X. Pedagogik texnologiyalar va taʼlimda innovatsiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019.

**Shaxsni  
ishontirishda  
pedagogning  
shaxsiy  
namunalari muhim  
ahamiyatga ega.  
Pedagog o'zining  
xatti-harakati,  
muomalasi va  
dunyoqarashi bilan  
bolalarga o'rnak  
bo'lishi kerak.  
Shaxsiy namunalari  
orqali bolalar  
axloqiy va ijtimoiy  
qadriyatlarga  
o'zlari ishonch  
hosil qilishadi.**

va aniq shaklda tushuntirish uchun ishlatiladi. Hikoya bolalarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilib, ular ongida ijobiy e'tiqodlarni shakllantiradi.

#### 2. Suhbat

Suhbat savol-javob shaklidagi muloqotdir. Bu metod shaxsning fikrlash va mulohaza qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Suhbat davomida pedagog bolalarga ma'lum bir axloqiy masala bo'yicha savollar berib, ularning javoblarini baholaydi va to'g'ri yo'nalish beradi.

#### 3. Disput

Disput katta yoshdagi bolalar va o'smirlar bilan ishlashda samarali qo'llaniladi. U shaxsning mustaqil fikrlash, o'z pozitsiyasini himoya qilish va ijtimoiy masalalarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Disput davomida pedagog ishtirokchilarga turli savollar berib, ularni muhokamaga jalb qiladi.

#### 4. Leksiya

Leksiya o'rta va katta yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, u murakkab axloqiy va ijtimoiy masalalarni tushuntirishda qo'llaniladi. Pedagog leksiya orqali shaxsga nazariy bilimlar berib, ularni kundalik hayotda qo'llash zarurligini asoslaydi.

#### 5. Pedagogik namuna

Shaxsni ishontirishda pedagogning shaxsiy namunalari muhim ahamiyatga ega. Pedagog o'zining xatti-harakati, muomalasi va dunyoqarashi bilan bolalarga o'rnak bo'lishi kerak. Shaxsiy namunalari orqali bolalar axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga o'zlari ishonch hosil qilishadi.

#### **Ilmiy muommoning tavsifi va yechimi.**

Ishontirish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorlov bosqichi – pedagog bolalar auditoriyasini o'rganadi, ularning qiziqishlari, psixologik xususiyatlari va ehtiyojlarini aniqlaydi. Bu bosqichda pedagog tarbiyaviy vazifalarni belgilab oladi.

2. Asosiy bosqich – bolalarga axloqiy qadriyatlar va ma'naviy me'yorlar tushuntiriladi. Bu jarayonda pedagog turli metodlardan foydalanib, bolalarning ongiga, his-tuyg'ulariga va irodasiga ta'sir ko'rsatadi.

3. Nazorat bosqichi – pedagog ishontirishning natijalarini tahlil qiladi va baholaydi. Bu bosqichda bolalarning xulq-atvoridagi o'zgarishlar kuzatiladi, kamchiliklar aniqlanadi va tuzatishlar kiritiladi<sup>2</sup>.

**Ishontirish metodining samaradorligini oshirish yo'llari.** Ishontirish metodining samaradorligini oshirish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

<sup>2</sup> Махмудова Н. Ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги ўзаро мулоқотда ишontiришнинг аҳамияти. Ижтимоий фанлар журналы, 2020.

### 1. Individuallik

Pedagog har bir bolaning psixologik xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Bunda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali ishonirishning samaradorligi ortadi.

### 2. Muloqot madaniyati

Pedagog bolalar bilan o'zaro muloqotda hurmat, samimiylik va ishonchni ta'minlashi lozim. Bu pedagog va bola o'rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

### 3. Yaratilgan muhit

Ishontirish uchun pedagog bolalar bilan ishlashda qulay va samimiy muhit yaratishi kerak. Bunday muhit bolalarning ochiqligi va ishonchini oshiradi.

### 4. Ko'rgazmali vositalar

Bolalar e'tiborini jalb qilish va ta'sirni kuchaytirish uchun ko'rgazmali vositalardan foydalanish zarur. Masalan, rasm, video yoki ijtimoiy roliklar.

Ijtimoiy pedagogikada ishonirish metodlari shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash va unga axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni singdirish uchun qo'llaniladigan muhim vositalardan biridir. Ushbu metod ijtimoiy pedagogikaning nazariy va amaliy jihatlarida keng qo'llanilib, shaxsning qarashlarini shakllantirish, uning jamiyatda to'g'ri o'rin topishi va mas'uliyatli fuqaroga aylanishida muhim rol o'ynaydi. Ishontirish shaxsning ongiga, his-tuyg'ulariga va irodasiga ta'sir qilish orqali ma'lum e'tiqodlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon pedagogning kommunikativ ko'nikmalari, shaxsiy namunasi va turli usullardan samarali foydalanishini talab qiladi<sup>3</sup>. Ishontirish metodi shaxsning ongida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish uchun turli vositalardan foydalanadi. Hikoya, suhbat, leksiya va disput singari metodlar shaxsni tarbiyalashda samarali hisoblanadi. Masalan, hikoya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'lib, u orqali axloqiy qoidalar va qadriyatlar sodda va qiziqarli shaklda tushuntiriladi. Bu usul bolalarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilib, ularda axloqiy me'yorlarga ishonch hosil qiladi. Suhbat esa savol-javob shaklida bo'lib, bolalar bilan muloqot o'rnatish, ularning fikrini bilish va ularga yo'nalish berishda muhim rol o'ynaydi. Pedagog suhbat davomida bolalarga axloqiy masalalarni tushuntiradi, ulardan maqsadli savollar orqali muhokama jarayoniga jalb etadi va to'g'ri qarorlar qabul qilishga undaydi. Leksiya katta yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, u orqali murakkab tushunchalar ochib beriladi. Masalan, ma'naviyat,

***Ijtimoiy pedagogikada ishonirish metodlari shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash va unga axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni singdirish uchun qo'llaniladigan muhim vositalardan biridir.***

<sup>3</sup> Муслимова Р. Ижтимоий педагогикада ахлоқий тарбия усуллари. Педагогика илмий журналы, 2021.

***Har bir bola o'ziga xos xulq-atvor va psixologik xususiyatlarga ega bo'lgani uchun individual yondashuv katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, pedagog o'z muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Muloqot jarayonida samimiylik, hurmat va ishonch muhim rol o'ynaydi.***

vatanparvarlik, adolat va mas'uliyat kabi tushunchalarni leksiya shaklida tushuntirish samarali bo'ladi. Disput esa o'smir yoshidagi bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'z pozitsiyasini himoya qilish va ijtimoiy masalalar bo'yicha fikr bildirish qobiliyatini shakllantirishda qo'llaniladi. Pedagog disput davomida bolalarni faol muhokamaga jalb qilib, ularning ijtimoiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ishontirish metodida pedagogning shaxsiy namunasi muhim ahamiyatga ega<sup>4</sup>. Bolalar, odatda, kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilishadi. Shu sababli pedagog o'z xulqi, muomalasi va dunyoqarashi bilan bolalar uchun o'rnak bo'lishi lozim. Shaxsiy namunalar orqali bolalar axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga ishonch hosil qiladi. Masalan, pedagog o'z vaqtida va mas'uliyat bilan vazifalarini bajarishi, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, halollik va adolat tamoyillariga rioya qilishi bolalarda ushbu sifatlarni o'zlashtirishga undaydi. Ishontirish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich tayyorgarlik bosqichi bo'lib, bu jarayonda pedagog bolalar auditoriyasini o'rganadi, ularning psixologik xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi. Bu ma'lumotlar asosida pedagog ishontirish jarayonini rejalashtiradi va tarbiyaviy vazifalarni belgilab oladi. Keyingi bosqich asosiy bosqich bo'lib, unda pedagog bolalarga axloqiy qadriyatlarni tushuntiradi va ularning ongiga ta'sir ko'rsatadi. Bu bosqichda pedagog turli metodlardan foydalanib, bolalarning his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir qiladi. So'nggi bosqich nazorat bosqichi bo'lib, bu jarayonda pedagog ishontirishning natijalarini baholaydi, bolalarning xulq-atvoridagi o'zgarishlarni kuzatadi va kamchiliklarni tuzatish uchun zarur choralar ko'radi. Ishontirish metodining samaradorligini oshirish uchun pedagog bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Har bir bola o'ziga xos xulq-atvor va psixologik xususiyatlarga ega bo'lgani uchun individual yondashuv katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, pedagog o'z muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Muloqot jarayonida samimiylik, hurmat va ishonch muhim rol o'ynaydi. Bu bolalar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ishontirish jarayonida qulay va samimiy muhit yaratish lozim. Bolalar o'zlarini erkin his qiladigan, ochiq muloqot qilishlari uchun qulay sharoit bo'lgan muhit ishontirishning samaradorligini oshiradi. Pedagog bu jarayonda ko'rgazmali vositalardan ham foydalanishi mumkin. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodi shaxsni tarbiyalash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu metod shaxsning ijtimoiylashuvini

<sup>4</sup> Jalolov J. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.

ta'minlash, uning axloqiy va ma'naviy tamoyillarini shakllantirishga qaratilgan. Ishontirish metodlarini samarali qo'llash uchun pedagog nafaqat nazariy bilimlarga, balki ijodiy yondashuv va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shu orqali ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik va boshqa ijobiy sifatlarni shakllantirishga erishiladi. Ijtimoiy pedagogikaning vazifalari orasida shaxsning o'ziga xosligi, ijtimoiy mas'uliyati va jamiyatga moslashuvini ta'minlash alohida o'rin tutadi. Ishontirish metodi orqali bolalarda o'zini anglash, atrof-muhitni tushunish va o'z o'rnini aniqlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayonda pedagogning roli juda katta bo'lib, uning bilim darajasi, tajribasi va bolalar bilan ishlashdagi yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagog o'z ustida muntazam ishlashi, yangi bilimlar va metodlarni o'rganishi lozim. Umuman olganda, ishontirish metodi ijtimoiy pedagogikaning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bu metod orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini osonlashtirish va ularda mustahkam e'tiqod shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, pedagogik jarayonni ijodiy tashkil etish va bolalar bilan ijobiy muloqotni yo'lga qo'yish pedagogik maqsadlarga erishishda muhim o'rin tutadi. Ishontirish metodi shaxsning faqat axloqiy emas, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois ushbu metodni ta'lim-tarbiya jarayonida kengroq qo'llash tavsiya etiladi.

#### **Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari bo'yicha takliflar:**

##### *1. Individual yondashuvni kuchaytirish*

Ishontirishning samaradorligini oshirish uchun har bir bolaning xulq-atvori, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim. Pedagog bolalar bilan individual ishlash tizimini yanada rivojlantirishi va shaxsiy yondashuvni qo'llashi lozim.

##### *2. Interaktiv metodlardan foydalanish*

An'anaviy hikoya va suhbat metodlarini interaktiv usullar bilan boyitish kerak. Masalan, rolli o'yinlar, guruhli muhokamalar yoki virtual platformalar orqali ta'sir ko'rsatish bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirokchi qiladi.

##### *3. Pedagogning shaxsiy namunasini takomillashtirish*

Pedagogning o'zi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga amal qiladigan namuna bo'lishi kerak. Shu bois pedagoglar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirishi, o'zini rivojlantirishga intilishi lozim.

##### *4. Ko'rgazmali vositalardan foydalanishni kengaytirish*

Bolalar tushunchalarni vizual obrazlar orqali tezroq qabul qilishi sababli, ishontirishda zamonaviy ko'rgazmali vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

***Ishontirishning samaradorligini oshirish uchun har bir bolaning xulq-atvori, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim. Pedagog bolalar bilan individual ishlash tizimini yanada rivojlantirishi va shaxsiy yondashuvni qo'llashi lozim.***



**Xulosa.** Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari shaxsni tarbiyalash va jamiyatga moslashuvini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy vazifasi shaxsning ongiga, his-tuyg'ulariga va irodasiga ta'sir ko'rsatish orqali unda axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdan iborat. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalari, bilim darajasi va shaxsiy namunasi ishontirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ishontirish metodi turli vosita va usullarni, jumladan, hikoya, suhbat, leksiya va disputni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar orqali bolalarga axloqiy masalalar tushuntiriladi, ularning fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi va jamiyat me'yorlariga mos xulq-atvor shakllantiriladi. Shu bilan birga, pedagogning shaxsiy namunasi bolalarda e'tiqod va ishonchni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Ishontirishning samaradorligini oshirish uchun individual yondashuv, interaktiv metodlardan foydalanish, bolalar bilan ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish va ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish talab etiladi. Shuningdek, pedagoglar o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab, ijodiy yondashuvni qo'llashlari lozim. Xulosa qilib aytganda, ishontirish metodlari shaxsni nafaqat axloqiy, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlarning samarali qo'llanilishi nafaqat tarbiya sifatini oshiradi, balki jamiyatda ma'naviy yetuk va mas'uliyatli shaxslarni shakllantirishga ham yordam beradi. Shu bois ishontirish metodlarini ijtimoiy pedagogika amaliyotida kengroq qo'llash va takomillashtirish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdullayeva Z.X. Pedagogik texnologiyalar va ta'limda innovatsiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019.*
2. *Маҳмудова Н. Ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги ўзаро мулоқотда ишонтиришнинг аҳамияти. Ижтимоий фанлар журнали, 2020.*
3. *Мўслимова Р. Ижтимоий педагогикада ахлоқий тарбия усуллари. Педагогика илмий журнали, 2021.*
4. *Jalolov J. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.*
5. *Karimova D.N. (2018). Ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.*



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT**  
**СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ**  
**FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy  
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni  
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»  
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.  
Журнал «Семья, женщины и общественная жизнь» считается продолжение журнала «Социальное управление».

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,  
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных  
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and  
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.  
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific  
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions  
of makhalla, family and gender equality.*

**MUASSIS:**

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,  
Jabborov U., E.Sultonov**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.

Тошкент, Олмазор тумани, Чимбой кўчаси, 8-уй.